O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ... PALATASI

Ona yurting - oltin beshiging

# TONG yulduzi

N: 10 (66499)
2005 yil
7 mart - 13 mart

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

*Muassislar:* O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» HUKUMATGA QARASHLI BO'LMAGAN XALQARO XAYRIYA JAMG'ARMASI.

## 8 - MART XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

## BAXTINGIZ BARQAROR BO'LSIN!



Aziz bolalar, qayda bo'lmang, qayerda yurmang, onangiz sizni kuzatib turadi. Uyda yo'q vaqtingizda dasturxon atrofida o'rningiz bo'sh,tovoqda esa oshingiz ortgan...Onangiz bor ekan, siz uchun qayg'urib, sizni yo'qlab turuvchi aka-ukalaringizning ham mehri bo'lakchadir.

Onalik- bolalikdan boshlanadi. Yo'qsa qizaloq qo'g'irchoq quchib, bolam dermidi? Nega u aytaylik, futbol to'piga yoki mashina-yu samosvalga emas, balki bola- qo'g'irchoqqa eng avval qo'lini cho'zadi? Chunki, Momo Havoimizning ota-onalari emas, bolalari bo'lgan. Shuning uchun inson bolasi eng avvalo bolam, deydi. Qolaversa, ayol zotining oliy martabasi ham- ONALIKdir. Tinch hayotni istagan onalarning bir oyog'i o'z yerida tursa-da, nigohi dunyoni kuzatadi.Jamiyatda, jamoatda ishi bor uning.

Mamlakatimizda istiqlol tufayli onalarga behad g'amxo'rliklar qilinmoqda. Yillarning «Ayollar» , «Onalar va bolalar yili» deb e'lon qilinishi, iqtidorli o'quvchi-qizlarni rag'batlantirish uchun Zulfiya nomidagi maxsus Davlat mukofoti ta'sis etilishi, har yili ko'plab xotin-qizlar davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lishi, yuqori tashkilotlarda ularning soni ortib borishida yurtboshimizning saylovlar oldidan hatto qonun yo'li bilan ayollarga ma'lum o'rin ajratishi... shular jumlasidandir.

Yaqinda Andijon viloyatidagi bir gimnaziyada bo'ldim. Gimnaziya yangi qurilgan ekan. Bizning borishimizdan rahbarlar ham, ustozlar ham bexabar edi. Bilim maskaniga kirib ketyapmizu oq ko'ylak, qora shim kiygan o'g'il bolalar,oq ko'ylak, qora yubkadagi qizaloqlar tor yo'lakning chetiga chiqib, o'ng qo'llarini ko'ksilariga qo'ygan holda «Assalomu alaykum» deb iltifot ko'rsatishmoqda edi. Ochig'i, bu o'zbekona tavozedan ko'zlarimga yosh keldi. Buni butun olamga ko'z-ko'zlasam arziydi. Chunki men Sho'ro davrida, butun rahbarlar ruscha gaplashadigan, o'zbeklar o'z so'zini anglatishga qiynaladigan, boshqacha urflar-odatlardan xabarim bor edi-da... Buni turmushidan noliyotgan ayrim kattalarga, bizda maosh ham, yashash ham, kiyinish ham hammasi joyida, deb qayta-qayta aytgim keldi. Bizda harakatga yarasha barakat bor!

Damas, Tiko, Matizlar kezib yurgan ozoda Andijondan qo'shni viloyatga o'tganim ko'z oldimda tez-tez jonlanadi. Chang va iflos ko'chalar, xunuk hovli joylar, ichkilikka moyil odamlar. Almisoqdan qolgan eski mashinalarni itarib yurgazishga urinayotgan yoshlar...Ularda ehtimol pul ko'pdir, ammo uni o'z o'rnida did bilan sarflashmasdi. Shuning uchun ham bizlarnikidek did bilan qurilayotgan uylar, bezatilayotgan ko'cha-yu gulzorlarni kam ko'rdim. Chindan ham mamlakatimiz gullab, yashnab bormoqda. Bunda bolasini did-farosatli qilib tarbiyalayotgan onalar, ona so'zini quloqqa olayotgan bolalar sabab. Biz uylar quryapmiz, go'zallikka intilayapmiz. Odamlarga mehr-muruvvatni, oqibatni qaytarib berayapmiz. Lekin hamma ham yangilikni birdek qabul qilmaydi. Aytaylik, «Tong yulduzi»mizni birinchilardan bo'lib lotin alifbosida chop eta boshlaganimizda ayrimlar shartmikan shu harfga tezda o'tishlik, kutubxonalardagi kirill alifbosidagi minglab kitoblarni bunaqada kim o'qiydi, degandi. Lekin biz dunyoga chiqayapmiz. Lotin alifbosidagi o'z gazetamizni ehtimol yon qo'shnilarimiz o'qiy olmaslar. Lekin turk o'qiydi, fransuz, inglizlar o'qiydi... O'z yo'limiz, ertangi kunimizga ishonib yashasak, ishlarimiz olg'a chopaveradi, degandik. Mana, yillar o'tib, lotin harfini ham, rus tili saboqlari sabab, kirill alifbosini ham bemalol o'qiydigan avlod shakllandi.

Hozir shahar va qishloqlarimiz tez o'zgarib bormoqda. Kech kuzda bolajonlar yig'gan gul urug'lari sabab, bahorda uy oldi, ko'cha chetlariga kim chiroyli gul o'stirish musobaqasi o'tkazilishini aytmaysizmi? Boriga baraka deb, kerak bo'lsa yo'qni yo'ndirib, ijod va hunar bilan yashaydigan xalqmiz.

Hatto bozorlarni ham avval yasatib, yashnatib, keyin jonlantirishga kirishyapmiz. Qo'shni respublikalardagidek qishda zax, yozda jazirama joylarda savdolashmaylik, deyapmiz. Biroz shoshmay, ammo shinam joylarda hatto tijoratni-da yurgizmoq qanday yaxshi! Buni tushunmaganlar turli mish- mishlarga quloq soladi

Men bir vaqtlar, aytaylik, qoshiqdan tortib,shamgacha aniq narxi yozilgan jamiyatni ko'rganman. Bu zukkoligu bilimdonligimiz bo'lsa, narx- navo borasida ham shunday sharoitga yetishamiz.Ona ekanman, bolamga «bu bizning bayrog'imiz, u falon yili qabul qilingan», deb o'stirgim keladi. Vatanimiz tug'i bilan faxrlanib, qomusimizni yod olib yashashsin ular. Agar o'lsam bayrog'imga o'rab ko'minglar, deb jangga kirgan va g'alaba qozongan yosh vatanparvarlar haqida o'qib- o'rganib ulg'ayganimdan bo'lsa kerak bu!..

Men burro javob beradigan siz bolajonlar bilan ko'p suhbatlashaman. Sizlar hatto askiyani ham qoyillatasizlar. Yuzlab she'rlarni yod olgan, turli tildagi kitoblarni o'qiy oladigan tengdoshlaringiz huzuriga tabiat va jamiyat saboqlaridan qurollanib borishga to'g'ri keladi. Qaysi qo'shiqni aytayapsiz, qanday kuyni tinglayapsiz, bariga onangiz, opa-singillaringizning ko'rsatmasi-yu ko'nikma va malakalari sabab. Bilag'onlaringizni bilmasvoylarga o'rnak qilib ko'rsatishdan aslo zerikmasligimiz kerak. Mashhur shaxmatchi Rustam Qosimjonov g'alabasi sharafiga mamlakatda bayram bo'lib ketganini eslang. Iloji bo'lsa, yomonotliq odamlar haqida kamroq o'qib va eshitib, yaxshilarga yondoshib yashash kerak. Axir ota- bobolarimiz ham tentagini aqlligim deb erkalab, chin insonlar safiga qo'shib yuborgan-ku!?.. Qolaversa, odam bolasi dunyoga umid bilan keladi. Ammo atrofidagi odamlar ayniqsa, katta harflar bilan yoziladigan - ONA, OPA va SINGILLAR ta'sirida shakllanadi. Ularni qutlug' bayramlari bilan muborakbod etar ekanmiz, istiqlolimiz- istiqbolimiz onalardan ham, bolalardan ham bilimdonlikni, ozod va obod Vatanda erkin yashash uchun o'z makoniga mehr qo'ymoqlikni talab etmoqda. Chindan ham bizning diyordek go'zal, orzular amalga oshadigan,baxti barqaror yurt hech yerda yo'q!

*Umida ABDUAZIMOVA.*

# GULLARIM SIZGA, USTOZ!

Opamning aytishlaricha, avvallari maktabimizda sharoitlar u darajada yetarli bo'lmagan ekan. Ancha ta'mirtalab bo'lib qolgan maktabning sport zali eshigiga doimo kattakon qulf osig'liq turarkan. Shuning uchun ham ular jismoniy tarbiya darslarini maktab hovlisida gala-gala bo'lib turib o'tkazisharkan. Darsdan bo'sh vaqtlarni qanday o'tkazishni bilishmas, chunki maktabimizda hech qanday to'garaklar faoliyat ko'rsatmagan ekan-da...



Hozir esa bu holning mutlaqo aksi. Maktabimiz binosi va sport zalimiz to'la ta'mirlangan. Kompyuterlar bilan jihozlangan sinf xonalarida bilim olmoqdamiz. Sinfdoshlarim Rustam, Shuhrat va Munisalar pul to'lab sport majmualariga qatnashardi. Hozir esa bunga hojat yo'q. Chunki o'zimizning kattagina sport zalimizda turli to'garaklar muntazam ishlab turibdi. Maktabimizda she'riyat ixlosmandlari ham talaygina. Ular ustozimiz Sohibjamol opa boshchilik qilayotgan yosh qalamkashlar to'garagiga a'zolar. Bu to'garaklarning bepulligi ota-onalarimizni ham xushnud qilyapti. Kutubxonamiz unchalik katta bo'lmasa-da, lotin alifbosidagi kitoblarga, gazeta va jurnallarga juda boy.



Bu ishlarning bariga maktabimiz rahbari Abubakir akaning o'zlari bosh-qoshlar.

Men shunday maktabda o'qiyotganimdan, mehribon ustozim Ozoda opa Mirzayevadan saboq olayotganimdan behad mamnunman.

Fursatdan foydalanib, Ozoda opani va barcha ustozlarimni bahor ayyomi bilan samimiy qutlayman. Ularga o'zim chizgan rasmlarimni sovg'a qilmoqchiman.

*Nargiza SHARIPOVA,*
*Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2 - o'rta maktabning 5 - «G» sinf o'quvchisi.*

# ORZUGA AYB YO'Q

***Ohanglar og'ushiga cho'mgan qalb, beorom tunlarni tonglarga ulaydi. Izlanish, intilish intihosi zafarli onlarga yetaklasa, inson uchun bundan ortiq baxt bo'lmaydi. Ana shunday baxt sari intilayotgan tengdoshlaringizdan biri Azizjon Jamolov Glier nomli 23-sonli musiqa maktabining fortepyano sinfida tahsil olib kelmoqda.***

U endigina 12 yoshni qarshi olgan bo'lsa-da, musiqa sohasida erishayotgan muvaffaqiyatlari bilan ko'pchilikni lol qoldirmoqda.

Azizjon 2003 yilda o'tkazilgan «etyudlarning eng yaxshi ijrosi» uchun deb nomlangan tanlovda faxrli 3-o'rinni egalladi. Bu tanlov uning uchun ilk dadil qadam edi. U sinf rahbari Svetlana Vladimirovadan musiqaning nozik sirlarini qunt bilan o'rganayotgani bois, A. Michorning «Tiriol etyudlari» P.Chaykovskiyning «Oq qush ko'li» va bir qancha sonatalarni mahorat bilan ijro etib kelmoqda. Azizjon nafaqat musiqa, balki boshqa fanlardan ham a'lo baholarga o'qiydi. Bir necha bor maktab ma'muriyati tomonidan «Maqtov yorlig'i» bilan mukofotlangan.



-Har bir ishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham uchrab turadi. Lekin men hamisha olg'a qadam tashlashni, iloji boricha o'z ustimda ishlashni yaxshi ko'raman. Hayotimda ko'plab qiziqarli voqealarga duch kelganman. Bir kuni tanlov oldidan fortepyanoni chalishga shunchalar berilib ketibmanki, kech bo'lganini ham sezmay qolibman. Ushbu holat qo'shnilarimning uyqusini buzib, dars qilayotganlarni darsini beliga tepishga ham yetibdi. Bir payt eshikni ochib qarasam, ular eshigim tagida turishardi. Nima ham qilardim, sekin kechirim so'radim. Ularning iltimosiga ko'ra barcha mashqlarimni to'xtatishga majbur bo'ldim.

Hechqisi yo'q, inson hamma narsaga ko'nikadi, qo'shnilar Azizbekning tunda chalayotgan kuylariga ham ko'nikishar. Ammo kelajakda mashhur bo'lib, konsertlariga chipta topolmaydigan paytlarida bezovta qilgan qo'shnilariga Azizjon kirish chiptasini sovg'a qilish niyatida. Oldinda orzulari bisyor tengdoshingiz musiqa bo'yicha o'z bilimini oliygohlarda davom ettirish niyatida. Biz ham Azizjonga yo'llaring hamisha nurga to'lib, kelajaging porloq bo'lsin, deymiz.

*Kamola TOSHPO'LATOVA.*




# ONAMGA

*Qilmadi birovlar qo'lida xor-zor,*
*Uning mehri ila iqbol menga yor.*
*Onam bor, bag'rim but, qalbda quvonch bor,*
*Har kim ona bilan bo'lsin baxtiyor.*

*Kimlardir onasin gulga o'xshatar,*
*Oppoq, yorug', ravon nurga o'xshatar.*
*Men esa onamni oy deb bilgayman,*
*Uning poylariga sajda qilgayman.*

*Axir onamdirlar mening oftobim,*
*Ishongan gul bog'im, issiq panohim.*
*Hatto maysa oftobni ona deb bilar,*
*Uning tafti, nuridan kuch olib unar.*

*Hosiyat SHOKIROVA,*
*Poytaxtdagi 222 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.*

# SOG'INCH

Onajon, bugun qo'limga qalam olishimga yuragimdagi sog'inch va sizning mehringizni qo'msash sababchi bo'ldi. Esingizdami, bundan to'rt oy avval meni kuzatayotganingizda ko'zimdagi yoshni ko'rib, qizim yig'lama, sen yig'lasang ketganingdan so'ng xavotir olib qo'lim ishga bormay qoladi, degan edingiz?... Shunday deysizu, lekin o'zingiz ham ko'zingizga kelgan yoshni menga ko'rsatmaslikka harakat qilasiz.



Onajon, birinchi marotaba tug'ilgan kunimni sizsiz nishonladim. Bilsangiz edi, Sizni qanchalar sog'inganimni!.. Bilaman, Siz ham meni judayam sog'ingansiz. Opamning menga yo'llagan maktublarida yozilishicha, agar oilamizda men haqimda gap ketguday bo'lsa, darrov ko'zingizga yosh olib, uyga kirib ketib, yig'lab-yig'lab chiqar ekansiz.

Nazarimda, ota-ona, opa-singil, aka-uka, qarindosh-urug', do'stu birodar va ona shahrim Andijon, mahallam Nasriddinobodning qadriga endi yetganday bo'lyapman.

Ertaga Sizu bizning bayramimiz. Qani endi qanotlarim bo'lsa-yu, yoningizga uchib borsam. Bag'ringizga o'zimni otib, bir quchoq gul taqdim etsam...

Volidalari bag'rida bo'lgan tengdoshlarim! Ularni e'zozlang, qadriga yeting. Billurdek shaffof, nafis ko'ngillariga zinhor ozor yetkazmang. Axir aytadilar-ku, jannat onalar oyog'i ostidadur, deb.

*Gulasal ISMONOVA,*
*O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyining 2-bosqich talabasi.*

# CHEVAR QIZ BO'LAMAN

Oilamiz to'rt kishidan iborat. Dadam, onam, men va singlim. Singlim ikkimiz maktab o'quvchisimiz. Onam uy bekasi. Dadam maktabda ishlaydilar. Tikuvchilikka juda ham qiziqaman. O'qishdan bo'sh vaqtimda turli narsalar tikaman. To'qish bilan ham shug'ullanib turaman. Bilganlarimni singlimga ham o'rgataman. U mendan o'yinchoqlar tikishni va ro'molchalar to'qishni o'rganib oldi. Buning barchasini to'garakka qatnab o'rgandim. Qolgan bo'sh vaqtlarimni onamga uy ishlarida yordamlashib o'tkazaman. Men yana she'r o'qish va yod olishni juda yaxshi ko'raman. Katta bo'lsam, qo'li gul tikuvchi bo'lmoqchiman.



***Mahliyo REYIMBAYEVA,***
***Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 3-o'rta maktab o'quvchisi.***

# PUSHAYMON

Nazokat o'ziga juda ishonadigan a'lochi qiz. Lekin bugun o'yinqaroqligi tutibmi, tarix fanidan uy vazifasini bajarmadi. Opasining o'tgan yili shu fandan tutgan daftarini papkasiga solib darsga otlandi.

Qo'ng'iroq chalinib, o'qituvchi sinfga kirib keldi. Yo'qlama qilib bo'lgach, navbat bilan uy vazifalarini tekshira boshladi. Nazokatning parvoyi palak. Navbat unga yetib kelganida qo'lidagi daftarini o'qituvchiga uzatdi.

Qalingina daftarni erinmay varaqlab chiqqan domla daftarning egasini kimligini sezdi chamasi, Nazokatga qarab: «Qizim, opangiz hali ham shu maktabda o'qiyaptilarmi?» deb so'rab qoldi.

-Yo'q ular hozir akademik litseyda o'qiydilar,-dedi u salgina tutilib.

-Attang, attang, unda opangizning daftarlarini o'zlariga qaytarib bering,-dedilar o'qituvchi.

Nazokat o'ziga qadalgan nigohlar qurshovida dovdirab qoldi. U ko'p marta opasining daftarlarini darslarda ko'tarib yurar, lekin hech kim sezmasdi. Bugun bo'lsa... U o'z qilmishidan qattiq izza bo'ldi. Essiz... Nega yolg'on gapirdi-ya. Yo'q, yo'q, endi bu holat qaytarilmaydi. Nazokatning lablari pichirlab, o'z-o'ziga so'zlardi. Qo'ng'iroq chalindi...

*Dilfuza XOLMATOVA,*
*O'zMU jurnalistika fakultetining I- bosqich talabasi.*

# MOTHER'S DAY

*Aziz bolajonlar, 8 - Mart qanday bayram? Bahor va baxt bayrami, onajonlarimiz, opa-singillarmiz ayyomi, shundaymi? U yana Xalqaro bayram. Demak bu kunni butun dunyo bayram qiladi.*

*Quyida e'tiboringizga ingliz tilidagi bayram ssenariysini havola qilyapmiz. Uni sahnalashtirib, onajonlaringiz hukmiga havola qiling. Ular Siz ko'rsatgan e'tibordan bir quvonsalar, ingliz tilida bemalol so'zlashayotganingizni ko'rib, o'n chandon sevinadilar.*

characters:
**Grandmother, mother, ason, two daughter**

A daughter comes up to calendar.

G: tomorrow is the 8th og march, Women's Day. It is a holiday for our Mothers too.

B: Granny, please, tell us about Mothers Day.

G:Yes, where does it come from. We want to know all about this holiday.

Grandmother: All right. Listen. In the old days many girls from poor families worked in rich peoples. They had to do all house work.

Their working day was long, they worked on Sundays too. Only one day they could visit their mother. They went on that day and brought presents for their mothers.

They could stay at home only one day. So this Mothers Day.

**PERFORMANCE**

*a rich man, poor girl and her mother.*

Girl: Master, please. Let me visit my mother. I come back in a day, and do all the house-work as usual.

Master: All right Here is money for you. You may go after finishing your work. Ask your Lady, too. Tomorrow be in time at home.

Girl: Thank you.

*(in the street at a market. She buys some things as a present.)*

Salaswomen: zome up and buy, good things for sell

Girl: How much, does this skirt cost?

Saleswoman: Six pence

Girl: give me sweets too.

Saleswomen: here you are.

Girl: thank you.

*(near her house girl sings a song)*

Home, Home, my dear home
Where can I have a little rest,
Home, Home is full with my dears
To whom I can speak and shed my tears.

Girl: Now I know the price of the proverb:
-I am at the home.

*(mother and children come out of the house)*

Girl: Oh! My dear mother, I missed you very much. *(She kissed her mother)* I missed you too my dears.(she give them presents)

Mother: Oh, my dear. You look very tired. Come in and have a little rest.

B: I see the poor girls life was very hard. And I think they deserved a day of rest.

G: What poor girls they were, indeed!

Grandmother: It's time to go to bed. It's alreedy 9 o'clock.

B: Thank you dear Granny, for your story, Good night.

G: Good night, Granny.

Grandmother: Good-nigt my dears.

*(go to sleep)*

B: Sister, look, there is ashadow of my hand on the wall.



G: What a big shadow it is!
They are right now
Tiptoeng, snaking, hiding
Do what you will, cannot kill
The forms that kepp on sliding
The shadows:
Short or tall, bif or small
Shadows dance, upon the wall
Shadows thin, shadows round,
Shadows creep upon the ground.

G: Oh! I am scared. Help, mother help.

Mother: What's the matter? Who frightened you?

G: Oh mummy we cannot sleep. There are shadows everywhere.

Mother: calm down. There is nobody in the room. Only you and I.

B: Mothers face pretty face
Always lights my night and day
All right, all is bright
When she comes to say good night.

Mother: Now close your eyes and sleep.
Proverb: Early to bed, early to rise
Make people health, wealthy and wise.
G:Mummy sing a Lubbaby for us.
Mother: Ok. Listen and close your eyes.
Sleep my dears sleep
In your beds sweet and deep
Sleep my dears sleep

*(in the morning)*

Sister: Brother Peter, brother Peter
Sleeps too well, sleeps too well
Ring the bell for breakfast
Ring the bell for breakfast
Ding-dong bell, ding-dong bell.
Brother:
When Mister Sun lights up the skies
I sit right up and rub my eyes.
I dress myself with greatest care
I brush my teeth and comb my hair.
Sister: Get up little sister
The morning is bright
The birds are all singing
To welcome the sunlight.
Brother: Let's wash our hands and face.
This is the way we wash our hands
Wash our hands, wash our hands
This is the way we wash our hands
Everyday in the morning
Boy and Girl:
Home is the nicest place to be
With father and mother and baby and me
With Skipper our dog and Smokey our cat
Oh, no place could ever be nicer then that
Boy:
My dog is clever, strong and quick.
It's name is Skipper and my name is Pete
My dog is nice, my dog is gay
We are together everyday.
Girl:
My little kitten likes to play
When I come home from scholl each day
My little kitten soft and silk
Maws to get her bowl milk

Tea time.
Help your mother set the table
With a knife and fork and spoon
Help your mother set the table
Every afternoon
Help your mother clear the table
Take the knife and fork and spoon
Help your mother clear the table
Morning, night and noon
Mummy is in the kitchen
As busy as can be
Cooking lots of good things
For daddy and for me
She lets me help with odd jobs
And we have lots of fun
The time I like best, thought
Is when her work is done

I like teh way you look
I like teh way you look
Now what I really want to say is
Happy mothers day
Mothers is the dearest
Of all the friends I know
She helps me work and helps me play
That's why I love her so.
Who fed us when we were children
And hushed us in their arms so mild
Our mothers
Who sat and watched our childish head when sleeping in our little beds
Our mothers
Who said good night
When we went to beds
Our mothers

*Ingliz tilini o'rganamiz*

Who dressed our dolls in clothes so gay
And always showed us how to play
Our mothers
Who run to help us when we fell
And who could funny stories tell
Our mothers
Who is so nice, who is so kind
Another so dear you'll never find
Our mothers
When pain and sickness made us cry
Who looked upon our heavy eyes
Our mothers
And can we ever stop to be
So loving and so kind to you
Who was so very kind to us
Our mothers
And when you are sick and old gray
Our healthy arms shall be your pains away
And we will calm your pains away
Our mothers
Our dear, dear Mummies
We love you very much
We want you to be happy
On the 8th of March
Be happy, be happy
On the 8th of the March
Be happy, be happy
On the 8th of the March

Each bright flowers
is here to stay
Our wish for you
Happy mothers Day.

***Gulnora AKROMJON qizi,***
***Shayxontohur tumanidagi***
***169-maktab o'qituvchisi.***

# RAQS TUSHIB ZAVQLANAMAN

Davrada zavqu shavq bilan raqsga tushayotgan bu qiz ko'zingizga issiq ko'rinayotgan bo'lsa, ajab emas. Chunki u to'rt yoshidan buyon sahnada-da... Buvijonim Zarifa ayaning san'atga ishtiyoqi juda baland bo'lib, jajjigina Mohidilning kuyga mos tebranishidan zavqlanib, O'zteleradiokompaniya qoshidagi «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs dastasining raqs guruhiga yetaklab borganlar. Badiiy rahbar Noila Ortiqova Mohidil kabi qizaloqlarning ham baletmeyster, ham murabbiysi, ham ustozidirlar.



-Opamiz har birimizning fe'l-atvorimizga qarab raqs tanlaydilar,- deydi, Mohidil Noila opasi haqida alohida g'urur bilan gapirar ekan.-Dugonalarim Nigora, Charos, Nilufarlarga jo'shqin, sho'x raqslar mos tushadi. Muqaddam, Shahnoza va Iroda esa ko'proq mumtoz raqslar shaydosi. Lobar va Pokiza «mimikaga» boy raqslarni berilib ijro etishadi. Menga esa Noila opamiz jo'shqin va quvnoq raqslarni topshiradilar. Ularni ijro etib, olam-olam zavq olaman.



Olti yil davomida Mohidilning repertuari ham ancha boyib qoldi. «Hindcha», «Xorazmcha», «Tomchi», «Doira», «Dutor» nomli raqslar guldastasini yaratdi. Bundan tashqari, guruhdosh dugonalari bilan birgalikda ijro etgan «Andijoncha», «Do'ppi tikdim», «Dilxiroj» va yana bir qator raqslarini ko'rgan odam zavqlanmay qolmaydi.

Mustaqillik bayrami, Navro'z tantanalari-yu, archa bayrami tomoshalarida olti yoshidan beri muntazam qatnashib kelayotgan Mohidil Oripova bolalarning yozgi dam olish oromgohlarida o'tkaziladigan turli san'at festivallarida o'z raqslari bilan birinchi o'rinni olib kelmoqda. Shuningdek, u ijtimoiy yo'nalishdagi respublika maxsus gimnaziyasining 4- sinfida a'lo baholarga o'qib kelyapti. O'quv maskanida tashkil etilgan «Yangi avlod» raqs dastasining eng faol ishtirokchilaridan biri.

San'atsevar bu qizaloqning yana qanday qiziqishlari borligini bilgim kelib savolga tutganimda, «Uy ishlarida oyimlarga yordam berib, xursand qilishni yaxshi ko'raman. Dadamlar ishdan kelganlarida, ko'ngillarini ko'tarib kutib olishni yoqtiraman... Eng sevimli mashg'ulotlarimdan yana biri - badiiy kitoblar o'qish», deydi.

-Kelajakda esa mohir tish shifokori bo'lmoqchiman. Odamning hech yeri, ayniqsa, tishi og'rimasin. Salomatlik bo'lsa, qolgan orzu-rejalarni amalga oshiraverish mumkin-ku,- deydi Mohidil muloyim jilmayib.

Uning yoqimli tabassumiga ko'rk berib turgan durdek tishlariga havasim kelib ketadi.

***Saidaxon ZOKIROVA.***

# HUNARI KO‘P YIGITNING..

«Yigit kishiga qirq hunar oz», deydi dono xalqimiz. Hunari bisyor yigitning ertasi serunum bo‘ladi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ixtiyorjon Ernazarov ham ana shundaylardan biri. U Denov shahridagi 1-sonli gimnaziyaning 8-sinfida tahsil olmoqda. O‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi tufayli Ixtiyorjon tinmay izlanadi, o‘z ustida qunt bilan ishlaydi. Birgina bu emas, sport sohasida ham u talaygina yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Yoshligidan taekvon-do to‘garagiga muntazam ravishda qatnashib, kelayotgan Ixtiyorjon, ushbu sport turi bo‘yicha yaqinda o‘tkazilgan musobaqada qatnashib, III- o‘rinni egaladi hamda bronza medaliga sazovor bo‘ldi. Surxondaryo viloyati Milliy «Taekvondo» federatsiyasi prezidenti Valijon Azimov uning erishgan yutuqlari bilan qutlar ekan, kelajakda Ixtiyorjondan ajoyib sport ustasi yetishib chiqishini ta’kidladi. Sport bilan muntazam shug‘ullanish o‘qishlaringizga halal bermaydimi, deya so‘rasangiz bizning taekvondochi do‘stimiz hech ikkilanmasdan kishida ishtiyoq bo‘lsa hamma narsaga ulguradi, deydi kulimsirab. Ixtiyorjon o‘zi tahsil olayotgan ta’lim maskanining barcha jamoat ishlarida faol, tengdoshlariga yaqin do‘st, ustozlariga esa munosib shogirddir. Kelajakdagi orzularidan biri O‘zbekiston bayrog‘ini qit’alar osha baland ko‘tarib, yurtimiz sharafini himoya qilish. Ixtiyorjonga qalbingdagi sof niyating hamisha ijobat bo‘lsin, deymiz.



*Nuriddin HAYDAROV,*
*O‘zMU qoshidagi S.Rahimov akademik litseyi talabasi.*

# «PAXTAKOR» YANA TENGSIZ

Poytaxtimizda bir hafta davomida tashkillashtirilgan futbol bo‘yicha «Toshkent xalqaro turniri» o‘z g‘oliblarini aniqladi. Dastlab Armanistonning «Pyunik», Latviyaning «Skonto», Belorus yoshlar terma jamoasi, Farg‘onaning «Neftchi», Toshkentning «Paxtakor» hamda O‘zbekiston olimpiyachilari ikki guruhga bo‘linib, poytaxtimizdagi «Jar», MHSK va Markaziy «Paxtakor» stadionlarida saralash bahslarini o‘tkazishdi. O‘yinlar yakuniga ko‘ra, finalga «Paxtakor» va «Neftchi» jamoalari yo‘l olishdi. Qiziqarli o‘tgan o‘yin 1:0 hisobida toshkentliklar foydasiga yakunlandi. 3-o‘rin uchun o‘tgan bahsda O‘zbekiston olimpiyachilari Riganing «Skonto» klubini 2:0 hisobida mag‘lub etdilar.

***Abdullo HAMIDULLAYEV,***
***Poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 46-maktabning 6-«A» sing o‘quvchisi.***



## FUTBOL TEST

1. *Mamlakatimizda birinchi futbol jamoasi qachon va qayerda tuzilgan?*
A) Toshkentda B) Jizzaxda
D) Qo‘qonda E) Buxoroda



2. *«Paxtakor» jamoasining bosh murabbiyi kim?*
A) Yuriy Sarkisyan
B) Ravshan Haydarov
D) Baxtiyor Rahimov
E) Tagmurod Agamurodov

3. *Mirjalol Qosimov hozir yurtimizning qaysi jamoasida to‘p suryapti?*
A) «Paxtakor»da B) «Nasaf»da
D) «Mash’al»da E) «Navbahor»da

4. *Jahonning taniqli futbolchisi Andrey Shevchenko qaysi klub a’zosi?*
A) Chelsi B) Bayer
D) Milan E) Inter

5. *O‘zbekiston futbol terma jamoasining bosh murabbiyi kim?*
A) Ravshan Haydarov
B) Bahrom Hakimov
D) Yurgen Gede
E) Abror Imomxo‘jayev

# «TONG IL MU DO» BIZNING MAKTABDA

Bugungi yoshlar sportga o‘zgacha mehr qo‘yganlar. Chunki sport olami ularga sihat- salomatlikni, tetiklik va bardamlikni, g‘ayrat- shijoatni o‘rgatmoqda. Yurtimizdagi bolalar sporti ham aynan shu maqsadlarni ko‘zlab kundan- kun rivojlanib bormoqda. Maktabimizda sog‘lom muhit tarzi barcha o‘quvchilarni o‘z izmiga solgandek go‘yo. Turli fan to‘garaklari qatorida sport mashg‘ulotlari muntazam olib borilmoqda. Buning evaziga sportsevar bolalar soni yuqori ko‘rsatgichni egallab turibdi, desam aslo mubolag‘a emas.

To‘g‘ri, jonajon ilm dargohimizda shaxmat- shashka, karate, futbol kabi sport to‘garaklari bor edi. Yaqindan boshlab esa «TONG IL MU DO» degan yangi sport turi ish boshladi. Bu sport turining nomi ko‘pgina o‘quvchilarni qiziqtirib qo‘yganligi bois, uning a’zolari soni tezda ko‘payib ketdi. Ustozimizdan bu sport turining vatani, uning qanday ma’no anglatishini so‘radik: demak, «tong il mu do» XV asrda yaponiyalik sport mutaxassislari tomonidan vujudga kelganligini u himoya va himoyalanish kabi ma’nolarni bildirishini ham o‘rganib oldik. Eng qizig‘i, bu sport turi bilan shug‘ullangan insonlar tayoq va pichoq bilan qurollangan raqibini ham yenga olish qudratiga ega ekan. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘zlariga yana bir karra ishonchlarini mustahkamlab bormoqdalar.

*Muxlisa MUSAXO‘JAYEVA,*
***Shayxontohur tumanidagi 137-maktabning 9-«A» sinf o‘quvchisi.***

# QIZLAR TUHFASI

Yurtimizga kirib kelgan ko‘klam nafasi qalbimizni ajib bir his-hayajonga, go‘zalikka oshno etmoqda.

Yaqinlashib kelayotgan bayramlar shukuhi bilan shodon yurgan kunlarimizning birida qo‘mitamizga ajoyib xushxabar keldi: Fevral oyining so‘nggi kunlarida Latviya poytaxti Riga shahrida bo‘lib o‘tgan stol tennisi bo‘yicha Xalqaro turnirda ishtirok etgan 1987-1993 yillarda tug‘ilgan o‘smir qizlarimiz 4 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo‘lga kiritibdilar. Biz shoda-shoda medallar bilan qaytgan sportchilarimizni turfa guldastalar bilan qarshi oldik. Ularning bu g‘alabasi yurtimizdagi barcha ayollarimizga, ayniqsa, yo‘llariga ilhaq ko‘z tikkan onajonlari uchun ajoyib bayram sovg‘asi bo‘ldi. Axir farzand muvaffaqiyatidan-da azizroq sovg‘a bo‘ladimi onalar uchun?!

Latviyadan ko‘tarinki kayfiyatda qaytgan qizlarimiz N. Karimova, G. Husainova, S.Grudskiy, N. Burxonxo‘jayeva, M. Ayupova, E. Soy va L. Ismoilova o‘z g‘alabalarini barcha o‘zbek qizlarining g‘alabasi deb hisoblaydilar va ularning barini Bahor va Baxt ayyomi bilan qizg‘in muborakbod etadilar.

*Muxtasar ABDURAHMONOVA,*
***O‘zbekiston xotin- qizlar qo‘mitasi ayollar va bolalar sportini rivojlantirish bo‘limining yetakchi mutaxassisi.***

## QORA LIBOS KIYADI DUNYO...

Erta tongda maktabga shoshib ketayotgandim. Bir uydan 16-17 yoshlar chamasidagi bir qiz, uning ortidan esa onasi chiqib keldi. Ona qiziga oq yo'l tilab, mehr bilan kuzatib qoldi. Qizning qomatiga yarashib turgan uzun yubkasi, chiroyli qilib turmaklangan sochlariga havas bilan boqib, ortidan kelardim. Avtobus bekatiga yaqin qolganda haligi qiz ko'p qavatli uylarning ortiga o'tib ketdi. Men esa bekatda avtobus kuta boshladim. Oradan hech fursat o'tmay, «dom»lar orasidan kalta yubka kiygan, sochlari yoyilgan, pardozu andozni joyiga qo'ygan bir qiz chiqib keldi-da, hali avtobus kelmadimi, deb so'radi mendan. Unga javob berish uchun o'girilib, hayratdan yoqa ushlab qoldim: chunki bu o'sha - hali onasi mehr-la kuzatib qolgan, men havas qilgan qizning o'zginasi edi-da...



Qalbimda qizning onasiga va uning kelajagiga nisbatan achinish hissi uyg'ondi. Qizlarimiz shu tariqa o'z volidalarini aldashsa, yuzlaridan hayoni, iboni sidirib tashlashsa, hayot zulmat ichra qolmaydimi!?

Axir bejiz aytilmagan-ku:

*Qiz bolada bo'lmasa hayo,*
*Qora libos kiyadi dunyo*, deb.

***Ma'fura JAMOLIDDINOVA,***
***Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi***
***29 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.***

## OSHKORA DIL IZHORI

Aytaylik, juda zerikib ketdingiz. Shunda nima qilasiz? Televizor yoki radioingiz qulog'ini buraysiz, to'g'rimi? Ularni o'zingiz xohlagan to'lqinga to'g'rilab, miriqib tomosha qilasiz, tinglaysiz. Har ikkisida ham dam olish to'lqinlarining ko'payib borayotgani va ularning aksariyati yoshlar uchun mo'ljallanganligi yaxshi albatta. Lekin ayrim ko'rsatuvlarni tomosha qilsangiz yoki eshittirishlarni tinglasangiz, hafsalangiz pir bo'lib ketadi. Keyingi paytlarda aka va opalarimiz so'zlariga quloq tutsak, ular lug'atida biz hali ma'nosini to'liq tushunib yetmaydigan «Xit-parad», «Xit-20», «Xit-top» kabi iboralar ko'payib boryapti. Bunday ko'rsatuvlar orqali qaysi qo'shiqchi qay bir qo'shig'i bilan nechanchi o'rinni egallaganligini bilib borardik. Endi esa bu ko'rsatuvlarga yana bir yangilik kiritilibdi: Tomoshabinlar ko'rsatuv orqali o'z tanishlariga uyali telefonlar yordamida «SMS» yuborishlari mumkin ekan. Do'stlarning bir-birlariga salom yo'llashlari, dugonalar bildirgan samimiy tilaklar yaxshi albatta. Lekin ular orasida «Sizni sevaman, Tohir. Nargiza», «Men barcha Toshkent yigitlarini sevaman», «Toshkent qizlarining barchasini sevaman. Sharof Muqimov» oshkora dil izhorlari ham borki, o'qib uyalib ketasan kishi. Hayron bo'layotgandirsiz, bu qiz hali kichkina bo'lsa ham shunday ko'rsatuvlarni ko'rar ekan, deb. Ichingizda: «Bu ko'rsatuvlar o'rniga multfilmingni ko'ravermaysanmi?» deyayotgandirsiz, balki. Gap shundaki, aka va opalarim lotin alifbosidagi yozuvlarni o'qiy olishmaydi. Shuning uchun ular menga o'qitishadi. Yana, tezroq o'qigin, hozir o'tib ketadi, deya shoshirib ham qo'yishadi. Ularga o'qib beramanu o'zim o'yga tolaman. Buvimning ertaklaridan bilaman, Tohir va Zuhra yonma-yon beshikda yotgan, bolalikdan birga ulg'aygan bo'lishlariga qaramay, bir-birlarining ko'zlariga tik boqa olmagan ekanlar. Nima, yoshlarimiz orasidagi hayo va ibo kabi fazilatlar ertaklarda, kitoblarda qolib ketdimi? Siz nima deysiz, aziz tengdoshlarim?



***Munisa KOMILOVA,***
***Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi***
***14 - maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi.***




## UZILGAN IP TUGUN BO'LIB QOLADI

Sinfimizda oralaridan qil ham o'tmaydigan Nodira va Shohista ismli ikki dugona bor. Nima bo'ldi-yu, bir kuni Shohistaning bilakuzugi yo'qolib qoldi. Katta tanaffusda Malika ismli qiz uning yoniga kelib o'tirib, qulog'iga bir nimalar deb shivirladi. Shohista uning gaplarini tinglar ekan, dugonasi Nodiraga ajablanib qarab qo'ydi-da, norozi ohangda: «Nodira, bilakuzugimni sen olgan ekansan-da?! O'g'irlamay, so'rasang shunday ham berib yuborardim-ku»-, dedi. Kutilmagan bu gapdan Nodira haykaldek qotib qoldi.

-Nima deding, men olibmanmi? Hali men o'g'ri bo'ldimmi!? -dedi ovozi titrab.- Mana, hamma cho'ntaklarimni titkila, papkamni ham ko'r!!

U shunday deya papkasidagi bor narsalarini parta ustiga to'kib tashladi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, kitob-daftarlari orasida dugonasining bilakuzugi ham yotardi...

Nodira o'zini qanday oqlashni bilolmay, ho'ngrab yig'lagancha sinfdan chiqib ketdi. Shu ketgancha uch kun maktabga kelmadi. Shu kunlarda sho'x- shaddod Shohista ham o'zgarib qoldi. Ma'yus va o'ychan yuradigan bo'lib qoldi. Dugonalarining iztirobini ko'rgan Saida darsdan keyin qizlarni yig'ib, bor haqiqatni aytib berdi. Voqea aslida bunday bo'lgan ekan: bu ikki dugonaning ahilligiga hasad



qilgan Malika Shohistaning bilakuzugini olib, Nodiraning papkasiga solib qo'yganini Saida eshik tirqishidan ko'rib qolgan ekan. Malika bilan sinf rahbarimiz alohida suhbatlashdilar...

Shu kuni darsdan keyin Shohista Nodiralarnikiga yo'l oldi. Bo'lgan voqeani unga so'zlab, aytgan nojo'ya gaplari uchun undan kechirim so'radi. Ular yarashishdi. Lekin avvalgidek chin dugona bo'lisholmadi. «Uzilgan ipni ulasang u baribir tugun bo'lib qoladi», deb bejiz aytilmagan ekan-da.

***Istora MAHKAMOVA,***
***Respublika Rassomlik kollejining 1 - bosqich talabasi.***

## «SOTKA» KO'TARGAN BOLA

Shiddat bilan rivojlanib, kundan-kunga o'zgarib borayotgan asrimizda texnikaviy yangiliklar hech birimizni ajablantirmaydigan bo'lib qoldi. Yaqindagina sanoqli kishilar qo'lida ko'rib, havas qilib yurganimiz uyali telefon apparatlarini hozir hatto biz tengi bolalar ham ko'tarib yurishibdi. Farzandiga uyali telefon olib bergan ayrim ota-onalar bilan suhbatlashganimizda: «Biz uzzu-kun xizmatda bo'lamiz. Farzandlarimiz o'qishga, sport to'garaklariga, repetitorlarga qatnashadi. Uyali telefon bizga doimo ular bilan bog'lanib, nazorat qilib turish imkoniyatini beradi», deya javob berishdi...

Tengdoshlarimning «sotka» ko'tarib yurishlariga e'tiroz bildirmoqchi emasman. Lekin dars paytidagi telefon qo'ng'irog'i, o'quvchining unga bergan javobi o'qituvchining ham, sinfdoshlarining ham fikrini bo'lib yuboradi, deb o'ylayman. Bu ham yetmagandek, dars chog'ida bir-birlariga «SMS» yuborib, kulishib o'tirishlariga, musiqasini qo'yib olib, o'zgalarni ham chalg'itishlariga nima deysiz? Nazarimda ular faqat telefon o'ynab o'tirish uchungina maktabga keladiganga o'xshaydilar. Qolaversa qo'l telefonlaridan chiqadigan to'lqinlar inson salomatligi uchun o'ta zararli ekanligini ular bilisharmikin? O'qituvchilarimizning dars paytida telefoningizni o'chirib qo'yinglar, deya bergan tanbehlari kor qilmayapti.



Bu borada Sizning fikringiz qanday, aziz tengdoshlarim?

***Dilshod G'AFUROV,***
***Toshkent shahridagi***
***169 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.***

*Salom, fasllarning sabza bahori,*
*Oylarning ichida dilbar kelinchak.*
*Erta-kech jaranglar ko'ngillar tori,*
*Doshqozonda qaynar endi sumalak...*

# SALOM, FASLLARNING SABZA BAHORI!

***Dildora Qurbonova, Samarqand viloyati, Toyloq tumanidagi 34-maktabning 9-sinfini bitirgan. Hozirda A.Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyining 10-sinf o'quvchisi. Gazetamiz sahifalarida uning ko'plab she'rlari, qatralari chop etilgan. Keling, Dildora bilan yaqindan tanishib olaylik:***



***- Dildora, Nafis san'at litseyida o'qish sizga yoqdimi?***

- Albatta. Bu maskanga o'qishga kirishim ham juda qiziq bo'lgan. O'quvchilik davrimda maktabimizda turli tadbirlarni raqslarim, she'rlarim va qo'shiqlarim bilan «bezatardim». Yuqori sinfga o'tgach, maktabda quyi sinf qizchalari uchun raqs to'garagi ochdim. Ularga raqsning jozibador va nozik sirlarini o'rgata boshladim. Qizchalarning harakatlarini ko'rib, o'zimning ham zavqim kelib ketardi va ular bilan birgalikda raqsga tushardim. Keyinchalik to'garagimiz a'zolari turli bayramlarda, Samarqanddagi Mustaqillik maydonidagi tadbirlarda qatnashib, «Faxriy yorliq»lar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Shu tariqa, ustozlarim, ota-onam, qolaversa, o'zimning sa'y-harakatlarim tufayli Nafis san'at litseyiga o'qishga keldim.

***- Bu yerdagi tadbirlarda ham qatnashib turasizmi?***

- Ha. Menga raqslarni sahnalashtirish topshirilgan. Bu yerda turli taniqli aktyor va rejissyorlar bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazib turiladi. Mening sahnadagi chiqishlarim, turli rollarni ijro etishim taniqli rejissyor Bahodir aka Yo'ldoshevda qiziqish uyg'otgan. Ular meni kelajakda teatr yoki kinoga taklif qilish niyatlari ham bor.

***- Kelajakda kim bo'lmoqchisiz? Aktyormi yo raqqosa?***

- Men aslida adabiyot yo'nalishi bo'yicha o'qiyman. Ustozlarim nomzodimni bu yil Zulfiya mukofotiga tavsiya qilishdi. Bundan tashqari, «Farishtam - onam» deb nomlangan kitobim nashrdan chiqyapti. Bilasizmi, jurnalist bo'lishga juda qiziqaman. Yulduz Ochilova, Guli Ikromova, Saodat Omonova, Nodira Tursunova kabi telejurnalist bo'lishni juda-juda xohlardim.

***-Jurnalist bo'lish osonmasligini, o'ziga yarasha qiyinchiliklari borligini ham bilasizmi?***

-Ha, lekin men qiyinchiliklardan qo'rqmayman. Kimlardir maqolani birovlarga yozdirib, uni osongina «o'ziniki» qilib oladi. Lekin men hamma narsaga o'z mehnatim, mashaqqatim bilan yetishmoqchiman. «Davr» informatsion dasturining har bir sonini ko'rib boraman. Suxandonlarning xatti-harakatlari, o'zlarini tutishi, dunyoqarashlarining kengligi meni lol qoldiradi.

***- Buning uchun chet tillarini bilish ham talab qilinadi, shundaymasmi?***

- To'g'ri. Men litseyni bitirgach, Jahon tillari Universitetiga kirib o'qimoqchiman. U yerda ingliz tilini mukammal o'rganmoqchiman.

***- Bo'sh vaqtlaringizda nimalar qilasiz?***

- Qadimdan «Qiz bola sepli emas, epli bo'lsin», degan gap bor. Men bo'sh vaqtlarimda zardo'zi do'ppilar, kelinlar uchun peshmatlar, jiyaklar tikish bilan shug'ullanaman. Ba'zi dugonalarim menga «Erinmaysanmi», deyishadi. O'zining tugmasini, gohida choki sitilib ketgan ko'ylaklarini boshqa qizlarga tiktirgan o'rtoqlarimni ham ko'rganman. Lekin bu qiz bolaga xos emas. U kelajakda oila sohibasi bo'ladi. Unda bu qizlarning holi nima kechadi, bilmayman.



***-Gazetamiz muxlislariga bu safar nima o'qib berasiz?***

-O'lkamizga fasllar kelinchagi bahor kirib keldi. Kishiga o'zgacha tarovat, o'zgacha kayfiyat, shoirlarga ilhom baxsh etadigan bu faslni hamma intiqlik bilan kutadi. Yana bahorda el suygan shoira Zulfiyaxonimning tavallud kunlari nishonlanadi. Men ham kelajakda Zulfiya mukofoti sovrindori bo'lmoqchiman va buning uchun astoydil harakat qilayapman. Menimcha, onadek buyuk inson bo'lmasa kerak, dunyoda. Fursatdan foydalanib, onajonimni, yurtimizdagi barcha onalarni, dilbar dugonalarimni bayramlari bilan chin qalbdan qutlayman. Biz farzandlari baxtiga Onalarimiz doimo omon bo'lishsin.

### ONAJONGINAM

***G'ov-g'uv bo'lib turardi hamon,***
***Bizning qishloq, ko'chalar tomon.***
***Kelmadingiz nahot, onajon,***
***Onajonim, onajon, onam.***
***Bordim-ku men ostonangizga,***
***Kechiring, deya koshonangizga.***
***Boqmadingiz burilib ammo,***
***Onajonim, onajon, onam.***
***Qon yig'layman tunlar beorom,***
***Rasmingizga boqib nigoro.***
***Kelmadingiz nahot onajon,***
***Onajonim, onajon, onam...***

***-Dildoraxon, kelajakdagi orzu-umidlaringizga yetishishingizda tilakdoshmiz. Elga taniqli jurnalist bo'lish baxti sizga ham nasib etsin.***

*Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.*

*Erkin A'zam*

# KECHIRASIZ, O'RTOQ MUALLIM!

*(Qissa)*



*(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).*

U yoqdan Hojiqulovning oldingidan ham balandroq tovushda:

- Men sizga aytyapman, Normatov, sinfni bo'shating tezroq! Menga sizdaqa o'zbilarmon, bezori o'quvchi kerak emas, bildingizmi! Jo'nang! - degani eshitiladi.

...Tarix darsi. Turobadzening dars o'tishga hushi kelmadi shekilli, «Sizda siyosiy til bor» deya, sinfni menga topshirib, o'zi jismoniy tarbiya o'qituvchisi Safarov bilan somsaxo'rlikka jo'naydi. Men uning tayinlagani bo'yicha o'tilgan mavzuni takrorlay boshlayman.

Eshik chertiladi.

- Mumkinmi, domlajon? - Kimningdir tanish, lekin qo'rqinchli ovozi...

Ostonada Hojiqulovning Safarov «volno»sini eshitmagandek, so'rraygan gavdasi paydo bo'ladi. Bolalar gur-r etib o'rinlaridan turishadi. U qo'li bilan «o'tiringlar» ishorasini bildirib, menga yuzlanadi:

- Qani, o'rtoq Normatov, martabalar muborak bo'lsin! - deya kinoyali tirjayadi. - O'zingiz tengi o'quvchilarga dars berish uchun kim huquq berdi sizga?

- Dars emas, o'rtoq muallim, shunchaki... Turobov muallimimizning ishlari bor ekanmi, mendan iltimos qildilar...

- Shunday de-eng! Ho-o, Turobov muallimingizga kim iltimos qilgan ekan darsni qo'yib somsa yeyishni? - Hojiqulov nimanidir sinayotganga o'xshab qiya qaraydi.

- Bilmasam, - deyman yelkamni qisib.

- Bilmasangiz, chiqib keting bu yerdan! Bilmasangiz, nima qilasiz o'quvchilarni aldab, ularning qimmatli vaqtini olib?.. - u mehribonlik qilayotgan kabi ochiq chehra bilan bolalarga qaraydi: - Shunday emasmi, o'quvchilar?

«O'quvchilari» negadir miq etmaydi. Risolat oldida, sinfdoshlarim oldida izza bo'lganimdan, og'zimni yopolmay qolaman:

- Siz keting! Nima qilasiz birovlarning darsiga poyloqchilik qilib? Darsi uchun kerak bo'lsa Turobovning o'zi javob beradi!

- Mah-ma-do-na! Ho', Turobovning tirranchasi-ey!

Ko'zimdan yosh chiqib ketay deydi.

- Chiqing, chiqib keting!

-Xo'p, domlajon, uzr! Siz aytasiz-u!.. - Hojiqulov shubhali tirjayib qo'l qovushtiradi. Uning bu holati go'yo xo'jasi qarshisida qulluq qilayotgan qulni eslatadi. - Biz-ku chiqib ketamiz, ammo keyin siz ham qolmaysiz - maktabdan chiqib ketasiz o'sha Turobovingiz bilan!..

- Bo'pti, ko'ramiz! Eshikni yoping!

- Mayli, eshikni yopaman-u, pedkengashga qo'yaman masalangizni, masalalaringizni!..

- Qo'ysangiz qo'yavering!

Tavakkaliga tap tortmayman. Meni maktabdan haydamasa kerak. A'lochiman, yana - maktab devoriy gazetasining muharririman-ku! Men ketsam, uni kim chiqaradi? Buning ustiga, «Lenin uchquni»da she'rlarim chiqqan... Qaytaga, Hojiqulovning o'ziga bir kor-hol bo'ladi. O'qituvchilarning bari, hatto direktor ham uni yomon ko'rarmish, lekin chora topolmasmish. Umarning aytishicha, «podderjka»si zo'r ekan-da...

Bir hafta burun bo'lib o'tgan bu mojaroni eslab, «Baribir hech narsa qilolmaydi» degan o'yda indamay turaverishga qaror qilaman. Lekin, «Eshityapsizmi, jo'nang deyapman sizga! Ikkinchi qorangizni ko'rmayin!» degani sabr kosamni to'ldirib yuboradi. Daftar-kitobimni yig'ishtirib eshikka otilaman. Ammo ostonaga yetmasdan Hojiqulovning kutilmagan buyrug'i meni to'xtatadi:

- Qayting!

Bunday paytlarda uning «Ota-onangsiz maktabga kelma» deyishini eslab:

- Otamni opkelaymi, onamni? - deb so'rayman.

- O'tiring joyingizga! - deydi u gapimga e'tibor qilmay: avzoyidan boshqa narsani o'ylayotganga o'xshaydi. - Keyin gaplashamiz siz bilan. Bugun pedkengash bor... Esingizdan, eslaringizdan, - deya u Umar bilan Akbarga ham qarab oladi, - chiqmasin! Aks holda...

- Xaro-osh! - deb qo'yadi Umar.

- Yomon bo'ladi, o'v bola!

Akbar o'rnidan turib, qo'llarini bir-biriga qovushtirgancha atay qimtingan ko'yi xunuk bir tovushda shang'illaydi:

- Bir-r matta kechiring, o'rtoq muallim!..



Hojiqulovdan boshqa hamma kulib yuboradi. Uning yapaloq peshonasi tirishgan. Bunday mahalda nasihatni qalashtirib, surasini surardi-ya, afsuski, hozir...

Soatim yo'q. Umarnikiga qarayman: mana, tanaffus...

- Kimda savol bor? - deb so'raydi Hojiqulov har galgidek. Umar qo'l ko'taradi.

- Xo'sh?

- O'rtoq muallim, RAPP nima degani? - u menga ko'z qisib qo'yadi.

- Bu mavzudan o'tib ketganmiz-ku?..

-O'tgan bo'lsak ham-da, tushunmayapman shunga...

Hojiqulov buzoq ko'zlarini derazadan ko'rinib turgan yaltiroq tol barglariga tikadi.

- RAPP, - deydi birdan bosh burib, - bu - Rossiyskiy Adabiy Partiya degani.

- Oxirgi «P»si-chi?

- Padaringga la'nat degani!..

Hojiqulov Safarovning «smirno»sini eshitmaganday shalpayib, sinf jurnalini go'yo birov tortib olishidan qo'rqqan kabi mahkam ko'kragiga bosgancha, dars yakunlashning barcha rasm-rusumlarini unutib, katta-katta qadamlar bilan tez yurib, baland ko'k eshikdan chiqib ketadi...

Qo'ng'iroq chalinguncha sinfda qahqaha tinmaydi.

Men bu dars tugashini she'riy maktublarimga Risolatning javobidan orziqib kutaman. Baxtimga...

Qo'ng'iroq chalinadi - dars tugaydi...

...Kechirasiz, o'rtoq muallim!..

*(Davomi bor).*

# BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!



1. Cholg‘u asbobi. Qoida.
2. Qizlar ismi. Dono ayol.
3. Maktub. Nazm va ....
4. Agar. Atir..., chinni....
5. Men (*ruscha*). keldi-..., ketdi.
6. ...mon , ...rika Al.., kal...
7. Gavhar. Orom.
8. Or, nomus. Mohir, as.
9. Yer. Do‘sting uchun ... yut
10. Teleserial nomi. Davlat.



**Tuzuvchi:** *Nargiza RAHMONOVA, Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi Alisher Navoiy nomli 9-maktabning 6-«A» sinf o‘quvchisi.*




| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| D | E | R | | | | M | A | T |
| X | U | R | | | | D | A | T |
| M | A | K | | | | R | I | K |
| D | I | Q | | | | L | A | M |
| T | O | G‘ | | | | L | I | Q |
| D | A | F | | | | T | I | B |
| K | A | R | | | | T | I | Q |
| G‘ | A | L | | | | L | I | F |
| SH | E | R | | | | SH | E | R |

*Mos harflarni qo‘yib so‘zlar yasang.*

**Tuzuvchi:** *Azamat QO‘NISHEV, Jizzax viloyati, Forish tumani, Osmonsoy qishlog‘i.*





*Tuzuvchi: Ravshan MALIKOV, Poytaxtdagi Yakkasaroy Yengil sanoat kasb hunar kollejining 2-kurs talabasi.*

**Sharti:** Agar siz bu harflar orasidan «Aziz onajonlar, bayramingiz muborak!» iborasini topib, yuqorida korsatilgandek qilib bo‘yasangiz, aziz onajonlarimizning bayramining sanasini topasiz.

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Q | O‘ | S | B | A | Z | I | Z | T | R | L |
| T | E | K | L | O | S | Z | Q | O | B | U |
| D | A | M | T | K | R | X | B | Q | N | O |
| S | R | D | Q | R | M | T | Z | I | A | B |
| K | O | I | A | Z | Q | B | T | R | J | X |
| P | X | B | K | S | U | I | D | O | I | S |
| G | D | R | U | J | X | D | N | M | Q | K |
| X | I | M | O | T | D | J | S | I | D | Q |
| R | B | U | D | G | A | M | R | S | A | Y |
| A | Z | Y | M | Y | I | E | O | U | R | J |
| L | I | A | X | D | J | K | X | E | K | D |
| Z | G | Q | R | X | K | Q | U | S | B | T |
| B | S | N | Z | L | E | Y | K | A | S | P |
| Y | T | Z | I | M | A | R | Y | B | E | G |

**Tuzuvchi:** *Alisher LUTFULLAYEV, Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 324-maktabning 9-«A» sinf o‘quvchisi.*



